
Akademik litseylarga kirish test natijalarini tanlov ustuvorligi bo'yicha aniqlash tartibi

 **Abituriyentning to'plagan bali ustuvorlik asosida:**

■ u tanlagan **birinchi akademik litseyning yo'nalishi** bo'yicha o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lsa, uning kirish test sinovi natijalari ushbu litsey yo'nalishida e'lon qilinadi.

 Bunda abituriyentga tanlagan ikkinchi va uchinchi akademik litsey yo'nalishi bo'yicha tanlovda ishtirok etishga **ruxsat etilmaydi;**

■ u tanlagan birinchi akademik litsey yo'nalishi bo'yicha o'qishga qabul qilishga **yetarli bo'lmay**, u tanlagan **ikkinchi litsey yo'nalishi** bo'yicha o'qishga qabul qilishga **yetarli bo'lsa**, uning kirish test sinovi natijalari ushbu **ikkinchi akademik litsey yo'nalishida e'lon qilinadi.**

 Bunda abituriyentga tanlagan uchinchi akademik litsey yo'nalishi bo'yicha tanlovda ishtirok etishga **ruxsat etilmaydi;**

■ u tanlagan birinchi va ikkinchi akademik litseyning yo'nalishi bo'yicha o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lmay, u tanlagan **uchinchi litsey yo'nalishi bo'yicha** o'qishga qabul qilishga **yetarli bo'lsa**, uning kirish test sinovi natijalari faqat **uchinchi litsey yo'nalishida e'lon qilinadi;**

■ u tanlagan birinchi, ikkinchi va uchinchi akademik litsey yo'nalishi bo'yicha o'qishga qabul qilishga yetarli bo'lmagan taqdirda, uning kirish test sinovi natijalari birinchi tanlagan litsey yo'nalishida e'lon qilinadi.

 Agarda bitta yo'nalish bo'yicha oxirgi qabul o'rni uchun **ikki yoki undan ko'p abituriyentning to'plagan umumiy bali teng bo'lib qolsa**, ularning barchasi **o'qishga qabul qilinadi** .